

**MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALARNI BADIY ADABIYOT
BILAN TANISHTIRISH ORQALI ULARNING ESTETIK TARBIYASINI
RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI**

Latipova Salomatxon Kadirovna

Andijon viloyati, Paxtaobod tumani Paxtaobod pedagogika kolleji o'qituvchisi

Kalit so'zlar: *adabiyot, texnologiya, faoliyat, estetika, nutq, til, muloqot*

Barchamizga ma'lumki, Prezidentimiz tomonidan yildan-yilga maktabgacha ta'lif tashkilotlarini rivojlantirishga qaratilgan islohotlarning amalga oshirilayotgani bejizga emas. Zero, maktabgacha ta'lif ta'lif tizimlarining ilk bo'g'ini ekan, boshqa ta'lif tizimlarining poydevori hamdir. Demak, bolalarning kelajaklari ham shu yerda bunyod etiladi. Zero, Prezidentimizning – “Yoshlarimizga munosib ta'lif berish, ularning ilm-fanga bo'lgan intilishlarini ro'yobga chiqarishimiz kerak. Shu maqsadda maktabgacha ta'lif tizimini rivojlantirishimiz, o'rta va oliv o'quv yurtlarining moddiy-texnik bazasini, ilmiy va o'quv jarayonlari sifatini tubdan yaxshilashimiz kerak.— Maktabgacha ta'lif tizimiga alohida e'tibor qaratayotganimiz bejiz emas, — dedi Shavkat Mirziyoyev. — Yoshlar tarbiyasiga bugundan e'tibor bermasak, ertaga kech bo'lishi mumkin”⁷- deb ta'kidlashlari bejiz emas.

O'sib kelayotgan yosh avlodni muayyan maqsad yo'lida har tomonlama kamol toptirish, uning ongi, dunyoqarashi, e'tiqodini o'stirish, xulq-atvorini tarkib toptirish maktabgacha ta'lif muassasalaridan boshlanadi va bugungi kunda bu masala muassasalarning dolzarb muammolaridan sanaladi. Hozirgi davrda har tomonlama rivojlangan barkamol insonni tarbiyalashning maqsad va vazifalari ma'naviy boylik, axloqiy poklik, jismoniy mukammallikni o'zida mujassamlashtirgan ijtimoiy faollikni tarbiyalashni taqozo etadi. Zero prezidentimiz – “Qaysi sohani olmaylik, biz zamonaviy yetuk kadrlarni tarbiyalamasdan turib biron-bir o'zgarishga, farovon hayotga erisha olmaymiz. Bunday kadrlarni, millatning sog'lom genofondini tayyorlash, avvalo, maktabgacha ta'lif tizimidan boshlanadi”, deb jon kuydirib ta'kidlashlari buning dalilidir⁸.

Ma'lumki, bola tarbiyasidek o'ta mas'uliyatli vazifani amalga oshirishda, shubhasiz, badiiy adabiyotning alohida o'rni bor. Bu borada tarbiyalanuvchilarning ilk yoshidan boshlab yaxshilikka, hamjihatlikka, chaqqonlikka, do'stona munosabatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan badiiy adabiyot bilan tanishtirish muhim ahamiyat kasb etadi, va albatta badiiy adabiyot orqali ularning axloqiy fazilatlari o'sib boradi. Chunki, har qaysi davrda yosh avlodning axloqiy fazilatlarni tarbiyalash muammosi, uning keskinligi eng muhim omillardan biri hisoblanib kelgan. Shuni alohida ta'kidlash joizki, butun dunyoda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlar bizning jamiyatimizga

⁷O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasidan.

⁸O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 17-oktabr kuni “Maktabgacha ta'lif tizimini tubdan takomillashtirish masalalari”ga bag'ishlab o'tkazilgan yig'ilishda so'zlagan nutqidan.

ham yetarlicha ta'sirini o'tkazib, axloqiy qadriyatlar va xulq-atvor me'yorlari sohasidagi salbiy o'zgarishlarni keltirib chiqarmoqda, zamonaviy bolalarni axloqiy tarbiyalashda salbiy tendentsiyalar paydo bo'lmoqda: kitoblar fondi yo'qolib bormoqda, ularning o'rnini televizor va kompyuter ekranlari, gajjetlar egallab bormoqda. Jamiyatimiz va davlatimizning buguni va kelajagi hisoblangan bolalarning ma'naviy-axloqiy salomatligini ta'minlashda, ularni madaniy meroslarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, tarixiy va madaniy an'analarimizni asrab-avaylashga o'rgatish, ona vatanga sadoqat ruhida kamol toptirishda shubhasiz badiiy adabiyotning o'rni beqiyosligi barchamizga ma'lum. Shu sababli, ta'limni rivojlantirishning maktabgacha ta'lim bosqichida badiiy adabiyot yosh avlodni tarbiyalashning eng omillardan biri hisoblanadi. Badiiy adabiyot bolani kamolatga etkazadi, ma'naviy ozuqa, bilim, taerbiya berish bilan birga uni estetik qobiliyatlarini shakllantiradi.

Badiiy adabiyot san'atning murakkab va serqirra turi bo'lib, u insonda yuksak ma'naviyatni shakllantirishning ta'sinchan vositasidir. Badiiy adabiyot - bu inson tan olingen ma'naviy tamoyil, ezunglik, sevgi, rahm-shafqat ob'yektidir. Maktabgacha yoshdag'i bolani hayotiy vaziyatlarda va odamlarning o'zaro munosabatlariga jalg qiladi, unga o'zi nimani quvontirishi va nimani xafa qilishi, nimaga qoyil qolishi va nimaga norozi bo'lishi, nimani qadrashi va nimadan bosh tortishi, nima tashvishi, xushyoqish va antipatiyalarga nima sabab bo'ladi. Bu erda hissiyotlar kurashida ong va qalbning shaxsiy fazilatlari rivojlanadi, o'zini adabiyotda jamlangan insoniyatning ma'naviy tajribasi bilan boyitadi.

U bolaning his-tuyg'ularini rivojlantiradi, xayolini tarbiyalaydi va o'zbek adabiyotining eng yaxshi namunalari bilan tanishtiradi. Bu namunalar o'zining ta'siri jihatidan xilma-xildir: hikoya orqali bolalar so'zlarning aniqligini, ma'nodorligini anglab oladilar; she'rlardan esa ularning musiqaviyligini, kuylanuvchanligini, ohangdorligini bilib oladilar, xalq ertaklari bolalaiga tilning ifodaliligini, mazmundorligini ochib beradi, nutqning xilmassalligini. hazil-mutoyibaga boyligini bolalarning ko'z oldida namoyon qiladi.

Badiiy so'zning ko'taruvchi ta'siri ta'sirida bola o'zi ma'lum xulosalarga keladi. Har bir badiiy jihatdan to'la kitob hayotning bir qismidir, u bolani o'z hayotining cheklangan doirasidan yangi, hali tajribaga ega bo'lмагan tajribaga chaqiradi. Bu tegilmagan narsalardan o'tish, o'z pozitsiyangizni egallah, qaror qabul qilish uchun tanlov qilish imkoniyatini ochadi. Adabiyot bolalarga xos bo'lgan ijtimoiy xulq-atvor me'yorlarini qalbga mahkam tutilgan xatti-harakatlarning ichki regulatorlariga aylantirishga qodir. Hamdardlik va o'z fikri orqali olingen xulosa odamga "tana va qon" ga kirib, "sezilmasdan olib borishi" mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining qonuni. Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida. T.: 2019-yil 16-dekabr, O'RQ-595-son. Qonun hujatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 17.12.2019-y., 03/19/595/4160-son).

2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.-T.: O‘zbekiston, 2016.- 56 b.
3. Abduhakimova M.K. O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’lim tizimi taraqqiyotining tashkiliy -pedagogik asoslari (1991-2000 yy). Avtoref. ped.fan.nom.-T.: 2004.-22 b.
4. Abduraximova D.A. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni axloqiy ruhda tarbiyalashda xalq ertaklaridan foydalanish. Avtoref. ped.fan.nom.T.:1998.-25 b.
5. Abobakirova O.N. Sovremeniye problemi i innovatsionniye podxodi podgotovki detey k shkole//Molodoy ucheniy. Moskva, 2015-№3.